

O‘QUVCHI-YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sh.M. Istamova, f.f.f.d., professor

H.R. Shamuratov, OXU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning pedagogik asoslari, uning zamonaviy ta’limdagi o‘rni, tarbiyaviy ahamiyati va shakllantirish haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari maqolada jadid ma’rifatchilarining yetuk vakillari ijodi orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, pedagogik asoslar, integratsiya, milliy qadriyatlar, dars jarayoni, o‘quvchi shaxsiyati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХА ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ

Ш.М. Истамова, PhD., профессор

Х.Р. Шамуратов,

Магистрант Международного Университета “Азия”

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы формирования чувства патриотизма у учащейся молодежи, его роль в современной системе образования, воспитательная значимость и пути формирования. Кроме того, в статье рассматриваются педагогические основы воспитания молодого поколения в духе патриотизма через творчество видных представителей джадидского просвещения.

Ключевые слова: патриотизм, воспитание молодежи, педагогические основы, интеграция, национальные ценности, учебный процесс, личность учащегося.

PEDAGOGICAL BASIS OF FORMING A SPIRIT OF PATRIOTISM IN YOUTH STUDENTS

Sh.M. Istamova, PhD, Professor

H.R. Shamuratov,

Master's student of the International University "Asia"

Annotation: This article analyzes the pedagogical foundations of fostering a sense of patriotism among students, its role in modern education, its educational importance, and methods of implementation. In addition, the article explores the pedagogical foundations of educating the younger generation in the spirit of patriotism through the works of prominent representatives of the Jadid enlightenment movement.

Keywords: patriotism, youth education, pedagogical foundations, integration, national values, lesson process, student personality.

Bugungi globallashuv, madaniy-ma'naviy raqobat kuchayib borayotgan davrda mustaqil davlatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy salohiyati va ma'naviy yuksalishi bevosita uning fuqarolarining, ayniqsa, yosh avlodning ijtimoiy ongi, vatanparvarlik tuyg'usi va fuqarolik pozitsiyasiga chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, har bir taraqqiyparvar jamiyat uchun yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb va strategik masala hisoblanadi. Vatanparvarlik – bu shunchaki tuyg'u emas, balki milliy ong, yurtga muhabbat, tarixiy xotiraga hurmat va ma'naviy mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy-psixologik holatdir.

Milliy tarbiya tizimining markazida vatanparvarlik g'oyasi turadi. U o'z ichiga ona tilini e'zozlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, o'z yurtining tarixiy va madaniy merosiga hurmat bilan qarash, el-yurt istiqboli uchun javobgarlik his qilish kabi asosiy fazilatlarni mujassamlashtiradi. Tarixiy manbalar, ayniqsa, o'zbek ma'rifatparvarlik harakati vakillari – jadidlarning qarashlari shundan dalolat beradiki, milliy uyg'onish, ma'naviy o'zlikni anglash, madaniy tiklanish jarayonlarida ta'lim-tarbiyaning o'rni benihoya katta.

Xususan, Abdulla Avloniy singari yirik ma'rifatparvarlar “tarbiya – saodat asosidir” degan g'oyani ilgari surgan holda, yosh avlodni ma'naviy yetuk, millatparvar, xalqparvar va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashni milliy taraqqiyotning bosh omili sifatida belgilaganlar. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” va “Milliy tarbiya” asarlarida yoshlar ongida vatan tuyg'usini shakllantirishni ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishi deb hisoblaydi. Unga ko'ra, millatsiz tarbiya bo'lmaganidek, tarbiyasiz millatning mustahkam poydevori bo'lishi mumkin emas.

Zamonaviy pedagogik qarashlarda ham tarbiyaning milliy zamin bilan uyg'unligiga alohida urg'u berilmoqda. Vatanparvarlik ruhini shakllantirish, uni ta'lim jarayonida samarali qo'llash o'qituvchilarning yondashuvi, metodik

mahorati, tarbiyaviy resurslardan foydalanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Har bir o‘quvchi qalbida Vatanga muhabbat urug‘ini qadash, uni bilim, amaliy faoliyat va ijtimoiy mas’uliyat asosida rivojlantirish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Harakati asosini Vatan va o‘z ona tiliga muhabbat, millat erkinligi masalalari tashkil etgan jadidchilik harakati XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan va o‘zbek xalqining ma’rifiy uyg‘onishida beqiyos o‘rin tutgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisa hisoblanadi. Ushbu harakat vakillari o‘z asarlarida xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy bilimlar va milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini barpo etishga da’vat etganlar. Vatanparvarlik, milliy ong, o‘zlikni anglash kabi tushunchalar ularning asarlarida markaziy mavzulardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Millat oydinlaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Maktab – millatning najot yo‘lidir,”- deganida nechog‘lik haq edi. Behbudiy o‘z asarlarida maktabni milliy uyg‘onish vositasi sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, Vatanni sevish – bu ilmi, ziyrak va jamiyatga foydali shaxs bo‘lish bilan bog‘liq. U shunday yozadi: “Millatni yo‘q qilmoq uchun avval uning maktabini yo‘q qilmoq kerak.” Bu fikr bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. O‘quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, ularni yurt ravnaqiga daxldor shaxs sifatida tarbiyalash, avvalo maktabdagi ta’lim-tarbiya tizimiga bog‘liq. Behbudiyning bir qator asarlarida bu g‘oyalar hayotiy obrazlar va didaktik ko‘rsatmalar orqali yoritilgan.

“Jadidlar otasi” deya nom olgan, maktab-maorif, tarbiya, vatanga muhabbat g‘oyalarini ilgari surgan Munavvarqori Abdurashidxonov tarbiyani “milliy mustaqillikning negizi” deya izohlaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid pedagogikasining asoschilaridan bo‘lib, bolalarda milliy g‘urur va Vatanga muhabbat hissini uyg‘otishda tarbiyaviy vositalarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Uning fikricha: “Har bir o‘g‘il bola – elning suyanchi, har bir qiz bola – millatning kelajagi. Ularni sog‘lom fikr, toza

axloq va Vatanga muhabbat bilan tarbiyalash har bir muallimning muqaddas burchidir.”

U o‘zining hikoya va maqolalarida maktab muhitida vatanparvarlik va axloqiy yetuklikni uyg‘un holda shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Munavvarqori o‘qituvchining o‘rnini faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, ruhshunos va namuna bo‘la oluvchi shaxs sifatida belgilaydi.

Ma’naviy uyg‘onish va o‘zlikni anglashga vatanparvarlik poydevori sifatida yondashgan Abdurauf Fitratning pedagogik va falsafiy qarashlari yoshlarda o‘zligini anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g‘urur va vatanparvarlik hissini uyg‘otishga qaratilgan. Uning “O‘zbek yoshlariga”, “Milliy maktablar haqida”, “Munozara” kabi asarlari zamonaviy pedagogika uchun chuqur konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fitrat yozadi: “Kim o‘z tarixini bilmasa, u boshqalarning tarixiga quldek xizmat qiladi.”

Bu fikr bugungi kunda yosh avlodni tarixiy xotira, milliy meros va Vatanning taqdiriga befarq bo‘lmaslikka chorlaydi. Fitrat milliy tarbiyani tafakkur tarbiyasi bilan birga olib borishni taklif etadi. U ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash, dunyoqarash kengligi va ijtimoiy faollikni vatanparvarlikning ajralmas qismi deb biladi.

Abdulla Avloniy saodatning asosi tarbiyada va vatanparvarlik – tarbiyaning yadro nuqtasi deya, o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Milliy tarbiya” kabi asarlarida vatanparvarlikni ma’naviy barkamollikning asosiy omili sifatida ko‘rsatgan. U shunday deydi: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.”

Avloniy uchun vatanparvarlik – bu avvalo axloqiy yetuklik, o‘z yurtini tanish, sevish va himoya qilishga tayyorlikdir. Uning pedagogik konsepsiyasida yosh avlod qalbiga Vatanga muhabbatni singdirish, ular ongida milliy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otish ustuvor ahamiyatga ega. Bu g‘oya uning asarlarida nafaqat nazariy, balki didaktik misollar, she’rlar va ibratli hikoyatlar orqali ham yoritilgan.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – har bir millatning ma’naviy kamoloti, tarixiy xotirasi va istiqboli bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim ijtimoiy-pedagogik jarayondir. O‘zbekistonning mustaqillik sari bosib o‘tgan yo‘li, davlatimiz tomonidan ta’lim-tarbiyaga berilayotgan e’tibor, ayniqsa, yurtparvar, milliy g‘ururga ega, ongli fuqaroni shakllantirishga qaratilgan islohotlar, bu boradagi ishlarga yangicha yondashuv zaruratini ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, jadid ma’rifatchilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniy asarlarida ilgari surilgan pedagogik qarashlar bugungi ta’lim tizimi uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular yoshlarni ongli, ma’rifatli, milliy o‘zlikka sodiq, Vatanni sevuvchi, ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning zarurligini ta’kidlaganlar. Jadid adabiyotidagi bu g‘oyalar bugungi kun sharoitida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yangicha shakllarda ta’lim tizimiga integratsiyalash ehtiyoji ortib bormoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, vatanparvarlik – bu faqat dars mavzusi emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichida izchil ilgari surilishi lozim bo‘lgan, o‘quvchi shaxsiyati rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi strategik ma’naviy qadriyatlardan biridir. Uni shakllantirishda esa o‘zbek ma’naviyatining ildizlariga tayangan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘un yondashuvni yo‘lga qo‘yish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maxsudovna, I. S., & To‘ymurodovna, Q. G. (2025). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (kahoot, educaplay kabi plotformalar misolida). Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(2), 177-180.
2. Истамова, Ш. М. (2021). Халқ оғзаки ижоди ва ёзма адабиёт намуналарида туш мотивларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги./Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 16-19.4.

3. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2024, February). Boshlang'ich sinflarda didaktik vositalardan foydalanishning ahamiyati. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 59-64).
4. Makhsudovna, I. S. (2023). Dreams as a Means of Psychological Analysis.
5. Истамова, Ш. М. *Поэтико-композиционные функции сна в художественном произведении* (Doctoral dissertation, (PhD) по филологии: 10.00. 02./Истамова Шохида Махсудовна).
6. Истамова Ш.М. [Анъанавий туш рамзларининг поэтик матнда берилиши.](#)/ - Новое слово в науке и практике: гипотезы и ..., 2017
7. Maxsudovna, I. S., & Qizi, S. M. S. (2022). The role and importance of puzzles in the development of intellectual abilities of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 209-213.
8. Истамова Шохида Махсудовна. Тоҳир Малик асарларида туш ва унинг талқини масаласига бир назар. /МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалык журнал. 2/2-сан 2025 март – апрель.
9. Истамова Шохида Махсудовна. Mustaqil ishlar - zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili./Pedagogik tadqiqotlar jurnali, o4, Fevral, 2025.
10. Sh.M.Istamova, Haydarova Gulbahor. Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarda ilmiy va ijodiy tafakkur shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari./PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI N o4, Fevral, 2025 ISSN:3060-4923,Impact Factor–7,212